

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA KATTA YOSHDAGI
BOLALARDA IJTIMOIIY KOMPETENSIYALAR ORQALI MADANIYLILIKNI TARKIB
TOPTIRISH SHAKLLARI VA METODLARI**

Bozorboyeva Mohiraxon

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti tyutori

Bolaning maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasiga ko'nikishida bola doim uyda, oilasida o'tkazgan davrlarida shakllangani, uning ota-onasi bilan o'zaro munosabatlarining buzilishi haqida ham gap ketmaydi. Bunda yaqin insonlar bilan ayrim va oilaviy tavsifga ega bo'lmagan yangi aloqalarning shakllanishi nazarda tutiladi. Bolaning yangi muhit sharoiti bilan tanishganidanoq uning oldiga qo'yilgan talablar, u yoki bu darajada qiyin masala hisoblanadi. Shunday hollarda bolaga bu murakkabliklarni yengishga yordam beradigan yo'llarni qidirish lozim, chunki aynan shu paytning o'zida ijtimoiy aloqalarning kengayishi ham sodir bo'ladi.

O'yin bola faoliyatining asosiy va o'ziga xos shaklidir. Bu o'sib ulg'ayayotgan bola organizmining tabiat haqida ma'lumot yig'ishiga, kattalarga taqlid qilishiga, faol harakat qilishiga ehtiyoj uning muhit bilan o'zaro aloqasi shakllanadigan faoliyat turidir. O'yin bola hayoti, madaniyati va faoliyatini tashkil qilish shakli sifatida uning yangi muhitga ko'nikish shartidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda faoliyat jarayonini olib borish o'z navbatida bir qancha murakkabliklarni talab etadi. Bu esa tarbiyachining rivojlantiruvchi markazlarda faoliyat olib borishida zimmasiga yanada mas'uliyat yuklaydi.

Tarbiyachi bilimlarni og'zaki bayon etsa, bolalar uni tinglaydi; tarbiyachi mustaqil ish topshirsa, bolalar bajarishadi. Bilimlarni og'zaki bayon etish, mustaqil ishlash kabilar o'qitish metodlari bo'lib, ular syujetli rolli o'yinlarda hal etiladi.

Tarbiya jarayonida ta'lim metodlarining samaradorligini oshirish maqsadida bir qancha metodlar majmuasidan foydalaniladi. Hikoya ham bolalar xotirasiga, ham ular tafakkuriga mo'ljallab tashkil etilganda, uning samaradorligi yanada oshadi.

Tajribali tarbiyachilar hikoya metodining samaradorligini oshirish maqsadida turli variantlardan foydalanishadi.

Hikoya. Ta'limning turli bo'g'inlarida qo'llaniladigan universal metodlardan biri hikoyadir. hikoyaning bir necha xil turi mavjud: kirish hikoyasi- o'quv materialini o'rganishga bolalarni tayyorlash maqsadida o'tkaziladi. Kirish hikoyasi badiiy asarlar bilan tanishtirish, yangi mavzuga oid omillarni eslash, ularni dastlabki tahlil etish bilan daxldor metoddir; bayon shaklidagi hikoya- Yangi o'quv materialini bevosita idrok etish bilan aloqador metodi sanaladi. Bayon shaklidagi hikoyada tarbiyachi o'quv materiali mazmunini turlicha aytadi, uning asosiy va ikkinchi darajali xususiyatlarini

izohlaydi; yakunlovchi hikoya-undan darsning oxirida o'rganilgan mavzuga yakun yasash maqsadida foydalaniladi.

Suhbat. Suhbat tarbiyachi bolaning o'zaro ta'siri diolog shaklida amal qiladigan ta'lim metodidir. Unda mavzu mazmuniga xos, atroflicha o'ylangan, bir-biriga bog'liq savollarni qo'yish va savollarga javob izlash hamda javob qaytarish yo'llari bilan tarbiyachi va bola faoliyati o'zaro muvofiqlashadi.

Suhbat mohiyati jihatidan ikki turli bo'ladi: evristik suhbat; katoxezistik suhbat. Evristik suhbat bolalarning tafakkuriga mo'ljallangan metod bo'lib, unda o'zaro ta'sir tarbiyachi savollari bolalarning javoblari shaklida amal qiladi. Evristik suhbat uzoq tarixga ega bo'lib, undan qadimgi Gretsiyada Sokrat mohirona foydalangan.

U hozirgi ilmiy-didaktik tadqiqotlarda «izlanish suhbat» ham deb yuritaladi. Evristik suhbatning qator ijobiy tomonlari mavjud; ijodiy yo'l bilan o'quv materialini o'rganish; o'zlashtirishning individual xarakter kasb etishi. Bu metodning salbiy tomonlari ham bor. Masalan, ma'ruza, hikoya vaqtni tejash nuqtai nazaridan eng masalador metodlar sanalsa, vaqtni ko'p olishi, evristik suhbatning kamchiligidir.

Bilimlarni og'zaki bayon etish metodlari, evristik suhbatni hisobga olganda, asosan, xotiraga, binobarin, bolalarning qayta eslash faoliyatiga mo'ljallab tashkil etiladi. Hikoya, tasvir, ma'ruza, suhbat metodlarining zaif tomoni ham shunda. Syujetli rolli o'yinlar bola tarbiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Syujetli rolli o'yinlar vositasida bola jamoa bilan munosabatlarni o'rnata oladi.

Syujetli-rolli o'yinlar va drammatizasiyalash markazi

«Non isi» A.Navoiy

Maqsad: A.Navoiyning «Non isi» hikoyati bilan tanishish. Aktyorlik mahoratni namoyon etish, non va non mahsulotlarini aziz deb tasvirlayotgan so'zlarning ma'nosini anglash.

Jihoz va materiallar: nonlar, savat, shox uchun taxt, kostyumlar, sallalar, stol va ko'rpachalar, dasturxon, gullar.

Faoliyatning borishi:

1. A.Navoiyning "Non isi" hikoyasini eslab gapirib berish.
2. Rollarni bolalarga bo'lib berish.
3. A.Navoiyning "Non isi" hikoyasi saxnalashtirilishi

Qo'shimcha qism: saxna ko'rinishi uchun musiqa jo'rligini taklif etish.

Syujetli-rolli o'yin va sahnalashtirish markazi

«Shifokor qabulida»

Maqsad: Shifokor kasbi bilan tanishish. Ayrim tibbiyot uskunalar nima uchun ishlatilishi to'g'risida tushunchaga ega (xarorat o'lchagich, shpris, stetoskop va h.k.)

Jixoz va materiallar: shifokor uchun kerakli bo'lgan bolalar to'plami, shifokor to'plami, qo'g'irchoqlar.

Faoliyatning borishi:

1. Rollarni mustaqil ravishda taqsimlaydi (shifokor, ona qizi bilan va h.k.)
2. O‘zi o‘ylab topgan ssenariyni saxnalashtiradi
3. Mazkur tematika bo‘yicha rollar bilan almashadi va yangi syujetni

sahnalashtiradi.

Syujetli-rolli o‘yinlar va drammatizasiyalash markazi

«Oltin tarvuz»ertagini sahnalashtirish.

Maqsad: xalq ijodiyoti bilan tanishishda davom etadi, aktyorlik mahorati ko‘nikmalarini orttiradi, yaxshi va yomonni farqlaydi.

Jihoz va materiallar:ertakning matni va rasmlari, qoliplar, kiyimlar, tarvuz maketi va oltin tangalar mulyajlari.

Faoliyatning borishi:

Bolalar rasmlarni tomosha qilish borasida ertakning syujetini esga olishadi.

Bolalarga rollarni taqsimlash.

Ertak inssenirovkasi.

Hayot havfsizligi asoslari.

Qo‘shimcha qism: bolalar rollarni almashishlari yoki ertakka boshqacha yakun o‘ylab topishlari mumkin.

E‘tiborga molik jihati: bolalar bir-birlarini o‘zaro xurmat qilishlari, muloqot qilishlari, nutq va ijodiy qirralarining rivojlanishi.

Ta‘lim oluvchilarning fikrlash faoliyatini va shaxsiy xususiyatlarini yaxshi bilish ta‘lim berishning samaraliroq usullarini topish imkoniyatini beradi. Ta‘lim oluvchining yaratuvchilik (ijodiy potension) qobiliyati, uning rnuloqot qila olish qobiliyatini, ta‘lim olish madaniyatini, ta‘lim jarayonining barcha bosqichlarida samaradorlik va sifatni oshirishda axborotlashgan jamiyat qurish orqali ijtimoiy jamiyat buyurtmasini bajarish (axborot texnologiyalari sohasi, axborot ta‘lim hujjatlari, foydalanuvchilar)ini va shu kabi jarayonlarni rivojlantirishdagi optimal variantlarni tanlashda istiqbolli natijalarni qo‘lga kiritishni kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K. Hashimov, S. Nishonova. Pedagogika tarixi. II qism. darslik.-Toshkent-2005 yil 68 b
2. fayllar.org/tayanch-kompetensiyalar.html
3. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi
4. <https://goaravetisyan.ru/uz/kompetentnostnyi-podhod-v-sovremennom-obrazovanii-kratko-kompetentnostnyi-podhod-kompetentnostnyi/>